

**BUXOROLIK O'ZBEKLAR MULOQOT XULQINING  
IJTIMOIY- LISONIY TADQIQI**

*Jo'rayeva Shohnoza*

*Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti Filologiya  
va tillarni o'qitish: o'zbek tili 6-6-UZB-21-guruh talabasi*

**Annotatsiya.** Buxoroliklarning nutqida eng ko'p uchraydigan so'zlar, ko'p tillilik, boshqa shevalardan farqi va o'xshashligi. Buxoro shevasini adabiy til bilan chog'ishtirilgan holda o'rganish.

**Kalit so'zlar:** morfema, o'rin-payt kelishigi, jo'nalish kelishigi, dialog, jonli so'zlashuv uslubi.

Buxorolik o'zbeklarning nutqiga va aksentiga asosan ikkita omil sabab bo'ladi. Biri Buxoroga qilingan yurishlar ta'siri bo'lsa, ikkinchisi tojik tili shevasi hisoblanadi. Ular o'z nutqi jarayonida sof adabiy til va tojikcha so'zlardan beixtiyor foydalanishadi. Nafaqat so'zlarni balki morfemalarni ham almashtirib qo'llashadi. Masalan,

- Odil ertaga ertalab qayerda bo'lasan?
- Maktabga bo'laman.

Yuqorida Odil va o'rtog'ining suhbatini keltirilgan. Odil o'ziga berilgan savolga "maktabga bo'laman" deb javob beradi. Bundan xulosa qilsak Odil buxorolik, Jondor, Shofirkon, Romitan yoki Kogon tumanlarining biridan. Lekin aslo Qorako'l va Olot tumanidan emas. O'rin-payt kelishigi bilan berilgan savolga jo'nalish kelishigidagi so'z bilan javob berish faqat Buxoro shevasiga xosdir.

Dilbar- Oyi suv to'ldirilgan obdasta qayerga- deb so'radi. Obdasta tojikcha so'z bo'lib, Shofirkon va Romitan tumanlarida keng qo'llanilardi. Turli urf-odatlar, aholining ichki migratsiyasi tufayli Buxoroning shahar va qishloqlariga yoyilgan. Dilbar o'z nutqida "obdasta" va "qayerga" kabi so'zlardan foydalandi. Biz bu so'zlar orqali Dilbarni buxorolik ekanini bilib olishimiz mumkin.

Abdulla Qodiriyning asarlarida ham buxorolik o'zbeklarning shevasi ham uchraydi. "Mehrobdan chayon" romanining "Barimta" bobida quyidagi jumlar keltirilgan.

- Tur, Sharif, tur peshin bo'luptu.
- Ikkinchi yigit ko'zini ochdi.
- Ey qo'ysangchi- chi Raxem.
- Tur-da, axiy, ana Qobelboy ham keb to'xtabtu. [ , ]
- Ebi, ebi- dedi Rahim, - birodaring ahvolini gapur-da, axi.

Bar uyquki, peshinga chikin bo'lsa, ko'chaga yotgan to'palangni go'shingga ilasanmi? [ , ]

Yuqoridagi keltirilgan jumlar orqali buxoroliklarning so'zlashuv uslubidagi ko'plab

unsurlar ko'zga tashlanadi. Chunonchi, Sharif o'zini uyg'otayotgan do'stiga Rahim emas balki Raxem deb murojaat qiladi. Muloqot davomida- ebe, ebi kabilardan foydalanadi. Bu esa Sharif buxorolik ekanini isbotlaydi.

Buxoro vohasi ko'p tilligi bilan ham tilshunoslar e'tiboriga, e'tirofiga sazovor bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Vohaliklar o'zbek tili, tojik tili, rus tili va biroz arab tilidan ham xabardordir. Jonli so'zlashuvda "a" tovushining o'rniga "o", "g" tovushining o'rniga "k" tovushlari almashinib qo'llaniladi.

Boropman, kelopman, qilopman, qanay, o'rgatkanlar, miloyim kabilar so'zlashuv jarayonidagi so'zlardir.

Buxoro viloyati Olot-Qorakol tumanlari aholisi asosan og'uz lahjasida so'zlashadi. Olot tumani Turkmaniston Respublikasi va Xorazm viloyatlari bilan chegaradosh bo'lib, ushbu hududlar lahjasi yaqqol sezilib turadi. Bu hududlardagi aholi sof turkiy so'zlardan foydalanadi. Buning isboti qilib "Devonu lug'otit turk" asariga to'xtalishimiz mumkin

G'ulva-ariqdan o'tkazilgan uzun quvur

Gechchi-echki, gechchicha echki bolasi

Nova-tarnov. Tomga o'rnatilgan yangi tarnovdan yomg'ir suvlari jildirab tushar edi.

Jorob, supsa-supurgi.

Bilgashli-atayin, jorttaga. Duyor bilgashli Davrni turtib yubordi.

Hokki-bukri. Xafiza xola hayot qiyinchiliklari oldida hokki bo'lib qolibdi.

Zomi-handalak. Dehqonbobo agoratidan bushbo'y zomilarning hidi kelib turar edi.

Sayixona-mollar uchun atalgan yem-xashaklarni soladigan joy.

O'zbek shevashunosligiga o'zinging beqiyos hissasini qoshgan

B. Jorayev, F. Abdullayev, S. Ibrohimov, M. Mirzayev, A. Shermatov, X. Doniyorovlar

kabilar o'zining ochmas izini qoldirgan.

Sheva so'zlarida tarix, xalq madaniyati, urf-odatlari jamlangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdulla Qodiriy „O'tkan kunlar" romani